

"TASDIQLAYMAN"
Xarid komissiyasi raisi,
Salomatlik va strategik rivojlanish
instituti direktori
A. Inoyatov
2025-yil



**Katta yoshdagi aholi orasida yuqumli bo‘lmagan kasalliklar
xavfli omillarining tarqalganligini o‘rganish xizmatlari
uchun**

Buyurtmachi: Salomatlik va strategik rivojlanish instituti

Toshkent — 2025-yil

MUNDARIJA

- I. Tanlov ishtirokchisi uchun yo‘riqnoma.**
- II. Tanlov hujjatlarining texnik qismi.**
- III. Tanlov hujjatlarining narx qismi.**
- IV. Shartnoma loyihasi.**

TANLOV HAQIDA AXBOROT JADVALI

Xarid predmeti	Katta yoshdagi aholi orasida yuqumli bo‘lmagan kasalliklar xavfli omillarining tarqalganligini o‘rganish xizmatlari uchun
Lotlarga bo‘linishi	1 ta lot
Xaridning reja-jadvali	Iyun oyi
Savdolarni o‘tkazish davri (oy)	Iyun oyi
Moliyalashtirish manbai	Byudjet
Boshlang‘ich narx	<u>1 78570000,00</u> (QQS siz); <u>2 000 000 000,00</u> (QQS bilan)
Tanlov taklifining ta‘minoti miqdori (zakalat yoki bank kafolati)	3%
To‘lov shartlari	30 foiz miqdorida oldindan to‘lov, qolgan 70% topshirish – qabul qilish dalolatnomalari hamda hisob-fakturalar asosida to‘lanadi.
To‘lov valyutasi	Mahalliy korxonalar uchun — o‘zbek so‘mi. Xorijiy ishtirokchilar uchun - AQSh dollari.
Yetkazib berish/xizmat ko‘rsatish joyi va shartlari	Toshkent sh., Shifokorlar ko‘chasi, 2-uy.
Yetkazib berish/xizmat ko‘rsatish muddati (vaqti)	120 kalendar kuni
Tanlov taklifining amal qilish muddati	Tanlov tugagan kundan boshlab 10 ish kuni
Tanlov ishtirokchilariga qo‘yiladigan talablar	<i>Tanlovda, unda qatnashish uchun qo‘yiladigan shartlarni bajargan, mulkchilik shaklidan qat‘iy nazar, O‘zbekiston Respublikasining rezidenti yoki norezidenti bo‘lgan barcha jismoniy yoki yuridik shaxslar ishtirok etishi mumkin.</i>
Tanlov takliflarini taqdim etish muddati	Tanlov e‘lon qilingan sanadan boshlab 5 ish kunidan ko‘p bo‘lmagan muddat ichida
Tanlov o‘tkazish bo‘yicha xarid komissiyasining mas‘ul (yoki ishchi organi)	Buyurtmachining ishtirokchilar bilan bog‘lanish uchun aloqa bog‘lovchi shaxslar: +998 90 941 77 92 Yo‘ldoshev Rustom

I. TANLOV ISHTIROKCHISI UCHUN YO‘RIQNOMA

- 1 Umumiy qoidalar.**
- 1.1 Tanlov bo‘yicha mazkur xarid qilish hujjatlari (keyingi o‘rinlarda tanlov hujjatlari) O‘zbekiston Respublikasining “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi Qonuni (keyingi o‘rinlarda - Qonun), O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 25-iyuldagi PQ-332-son qarori bilan tasdiqlangan Davlat xaridiga doir tanlov bo‘yicha xarid qilish hujjatlarini va texnik topshiriqlarni kompleks ekspertizadan o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi Nizom hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 20-maydagi 276-son qarori bilan tasdiqlangan Davlat xaridlarini amalga oshirish bilan bog‘liq tartib-taomillarni tashkil etish va o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi Nizom talablariga muvofiq ishlab chiqilgan.
- 1.2 Tanlov predmeti: Katta yoshdagi aholi orasida yuqumli bo‘lmagan kasalliklar xavfli omillarining tarqalganligini o‘rganish xizmatlari.
- 1.3 Tanlov o‘tkazish: O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 21.02.2024 yildagi PF-37-son “O‘zbekiston — 2030” strategiyasini “Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”gi farmoniga asosan.
- 1.4 Tanlovning boshlang‘ich narxi:
2 000 000 000,00 (QQS bilan); 1 785 700 000,00 (QQS siz)
Tanlov taklifida ko‘rsatilgan narxlar boshlang‘ich narxdan oshmasligi kerak.
- 1.5 Xarid komissiyasining majlislari xarid komissiyasi a‘zolari hozirligida yuzma-yuz o‘tkaziladi. Yuzma-yuz majlislar videokonferensiyalar (telekonferensiyalar va hokazo) shaklida o‘tkazilishi mumkin.
Xarid komissiyasi axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositalaridan foydalangan holda masofadan turib ovoz berish huquqiga ega.
- 1.6 Ushbu Tanlov hujjatlarida foydalaniladigan asosiy tushunchalar:
oldindan to‘lov — qonun hujjatlarida belgilangan tartibda Buyurtmachi va xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchisi tomonidan kiritiladigan, operatorning vositachilik yig‘imini va tomonlarning zakalatini o‘z ichiga olgan moliyaviy mablag‘lar summasi;
taklifni ta‘minlash — buyurtmachining talabiga binoan ishtirokchi tomonidan takliflar va majburiyatlarning garov, kafolat, zakalat tarzida yoxud qonunchilik hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa usulda ta‘minlanishi;

davlat xaridlari elektron tizimining operatori (keyingi o‘rinlarda — operator) — davlat xaridlarining subyektlariga davlat xaridlarining elektron tizimlarida xarid qilish tartib-taomillarini amalga oshirish bilan bog‘liq xizmatlar ko‘rsatadigan, O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan belgilanadigan maxsus vakolatli yuridik shaxsdir;

shaxsiy kabinet — elektron davlat xaridlarida ishtirok etishni hamda zarur axborotni joylashtirishni va undan foydalanishni ta‘minlaydigan, buyurtmachi yoki xarid qilish tartib-taomili ishtirokchisining maxsus axborot portaldagi individual sahifasi;

hisob-kitob-kliring palatasi (bundan buyon matnda HKKP deb yuritiladi) — avans to‘lovlarini deponentlash va ularni hisobga olish yo‘li bilan shartnomalar bo‘yicha majburiyatlarni bajara oladigan ishtirokchilarni elektron xaridlarga kirishini ta‘minlovchi Operatorning tarkibiy bo‘linmasi;

davlat xaridlarining elektron tizimi (bundan buyon matnda elektron tizim deb yuritiladi) — elektron davlat xaridlari jarayonida davlat xaridlari subyektlarining hamkorligini, elektron davlat xaridlari jarayonidagi xarid qilish tartib-taomillari o‘tkazilishini ta‘minlaydigan tashkiliy, axborotga oid va texnik yechimlarning dasturiy majmui;

elektron davlat xaridlari — axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda davlat xaridlarini amalga oshirish shakli.

- | | | | |
|---|---------------|-----|--|
| 2 Elektron tanlov tashkilotchilari | Tanlov | 2.1 | Tanlov buyurtmachisi: Salomatlik va strategik rivojlanish instituti (keyingi o‘rinlarda “Buyurtmachi”). |
| | | 2.2 | Buyurtmachining ishtirokchilar bilan bog‘lanish uchun aloqa bog‘lovchi shaxs: Bosh hisobchi Otabek Manazarov.

Manzil: Toshkent sh., Shifokorlar ko‘chasi, 2-uy, tel: (90 851 33 81). |
| | | 2.3 | Shartnoma egasi: Salomatlik va strategik rivojlanish instituti. |
| | | 2.4 | Tanlov, kamida yetti nafar a‘zodan iborat tarkibda buyurtmachi tomonidan tashkil qilingan xarid komissiyasi (keyingi o‘rinlarda – Tanlov komissiyasi) tomonidan o‘tkaziladi. |
| 3 Elektron ishtirokchilari | Tanlov | 3.1 | Elektron Tanlov ishtirokchisi (bundan buyon matnda ishtirokchi deb yuritiladi) elektron Tanlovda davlat xaridlarini bajarish uchun talabgor sifatida ishtirok etayotgan, O‘zbekiston Respublikasining rezidenti yoki norezidenti bo‘lgan jismoniy yoki yuridik shaxsdir. |
| | | 3.2 | Ishtirokchi: |

davlat xaridlari to'g'risidagi axborotdan qonunchilikda nazarda tutilgan hajmda foydalanish;

buyurtmachiga yoki u tomonidan jalb etilgan ixtisoslashgan tashkilotga muayyan davlat xaridlarining tartib-taomillari, ularni o'tkazish talablari va shartlari bo'yicha so'rovlar berish hamda ulardan tushuntirishlar olish;

davlat xaridlari sohasidagi shikoyatlarni ko'rib chiqish bo'yicha komissiyaga xarid qilish tartib-taomillari natijalari yuzasidan shikoyat qilish;

qonunchilikka muvofiq takliflarga o'zgartirishlar kiritish yoki ularni qaytarib olish huquqiga ega.

3.3 Ishtirokchi:

davlat xaridlari to'g'risidagi qonunchilik talablariga rioya etishi;

xarid qilish hujjatlari talablariga muvofiq bo'lgan takliflar va hujjatlarni taqdim etishi hamda taqdim etilgan axborotning ishonchliligi uchun javobgar bo'lishi;

asosiy benefitsiar mulkdor to'g'risidagi ma'lumotlarni oshkor etishi;

g'olib deb topilgan taqdirda, Buyurtmachi bilan qonunchilikda nazarda tutilgan tartibda va muddatlarda shartnoma tuzishi shart.

3.4 Buyurtmachi bilan manfaatlar to'qnashuvi bo'lgan ishtirokchi davlat xaridlari ishtirokchisi bo'la olmaydi.

3.5 Ishtirokchi davlat xaridi ijrochisi (g'olib) deb e'tirof etilgan taqdirda:

Tanlov savdolari yakunlari bo'yicha g'olib deb rasman e'lon qilingan kundan e'tiboran ikki kun mobaynida davlat xaridlari maxsus axborot portalida tegishli ma'lumotlarni joylashtirish orqali bevosita yoki bilvosita 25 foiz yoki undan ko'p aksiyalarga (ulushga) haqiqatdan nazorat qilishga ega bo'lgan o'zining yakuniy manfaatdor shaxslari (benefitsiarlari) to'g'risidagi axborotlarni oshkor qilishlari;

o'zlarining veb-saytlarida va maxsus axborot portalida doimiy asosda Tanlov savdolari yakunlari bo'yicha imzolangan shartnoma majburiyatlari bajarilishi haqidagi ma'lumotlarni joylashtirib borishga majbur.

4 Elektron Tanlovga kiritish

4.1 Elektron tanlovda ishtirok etish uchun ishtirokchilar operatorning vositachilik yig'imini va zakalatni (bundan xarid komissiyasi tomonidan zakalat to'lash talabi belgilanmagan hollar mustasno) HKKPdagi shaxsiy hisobvaraqlariga o'tkazadilar.

4.2 O'zbekiston Respublikasi norezidentlari ERI kalitisiz o'zlarining shaxsiy kabineti orqali elektron davlat xaridlari tizimida ro'yxatdan o'tadilar va tanlov takliflarini yuboradilar.

4.3 Elektron tizimi avtomatik rejimda quyidagilarni amalga oshiradi:

- davlat buyurtmachisi va ishtirokchiga kiritilgan avans summasiga muvofiq har bir lot bo'yicha elektron davlat xaridlaridan foydalanish imkoniyatini yaratish;
- elektron davlat xaridlarini o'tkazish;
- ijrochini aniqlash va shartnomani shakllantirish;
- elektron davlat xaridlari ishtirokchilarining takliflarini Soliq qo'mitasi, Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Qurilish va uy-joy kommunal xojalik vazirligi, Adliya vazirligi ma'lumotlar bazalariga integratsiyalashuvi orqali baholash uchun zarur bo'lgan ma'lumotlar bilan davlat buyurtmachisi va xarid komissiyasini ta'minlaydi.

4.4 Ishtirokchilarni xaridga kiritish ular tomonidan portaldagi so'rovnoma-arizani to'ldirish yo'li bilan amalga oshiriladi.

Ishtirokchilarni xaridga kiritish, ularning quyidagi mezonlarga muvofiq bo'lganda amalga oshiriladi:

Shartnoma tuzish uchun qonuniy huquqqa egaligi; soliqlar va yig'implarni to'lash bo'yicha muddati o'tgan qarzdorlikning mavjud emasligi;

o'ziga nisbatan joriy etilgan to'lovga qobiliyatsizlik tartib-taomillarining mavjud emasligi;

Insafsiz ijrochilarning yagona reestrda qayd etilmaganligi.

Soliq organlari tomonidan berilgan ERI mavjudligi ishtirokchini shartnoma tuzish huquqini belgilaydi.

Ishtirokchi so'rovnoma-arizada unga nisbatan qo'llanilgan to'lovga qobiliyatsizlik tartib-taomillari mavjud emasligi hamda soliq va yig'implarni to'lash bo'yicha muddati o'tgan qarzdorlikning mavjud emasligi haqida ma'lumotlarni tasdiqlaydi.

Ishtirokchi tomonidan so'rovnoma to'ldirilgandan so'ng, Buyurtmachi tomonidan Insafsiz ijrochilarning yagona reestri ma'lumotlarini unda ishtirokchi haqida yozuv mavjud emaslik holatlari tekshiriladi.

Operator:

buyurtmachilar va ishtirokchilarga HKKPda alohida shaxsiy hisobraqamlar ochadi;

buyurtmachilar va ishtirokchilarga shaxsiy kabinetlar tashkil etadi.

5 Tanlovda ishtirok etish va taklif ta'minotini taqdim etish tartibi

5.1 **Taklifning ta'minot** usuli, shu jumladan Tanlov ishtirokchisining kelishilgan muddat davrida o'z taklifini qaytarib olmasligiga kafolat beruvchi pul zakalatini kiritish va qaytarib olish tartibi hamda miqdori elektron davlat xaridlari tartib-taomillarini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarga muvofiq belgilanadi.

5.2 Elektron Tanlovda ishtirok etish uchun ishtirokchi:

- <https://etender.uzex.uz> saytida ro'yxatdan o'tadi va ro'yxatdan o'tish sahifasida kerakli bo'limlarni (mijoz turi, shaxsiy ma'lumotlari, aloqa ma'lumotlari) to'ldiradi.

- ro'yxatdan o'tish jarayoni tugagandan so'ng, HKKPda ishtirokchi uchun shaxsiy hisobvaraq ochiladi. Ishtirokchilar ularning HKKPdagi hisobraqamlarida zakalat to'lovining yetarli miqdori mavjud bo'lgan taqdirdagina elektron davlat xaridlarida ishtirok etadilar;

- Tanlov shartlari bilan batafsil tanishgandan so'ng ishtirokchi elektron Tanlovda ishtirok etish uchun ariza beradi va "Umumiy ma'lumot" sahifasida, "Tovarlar va buyumlar", "Talablar" bo'limlarida zarur ma'lumotlarni to'ldiradi.

Talablar bo'limida ma'lumot kiritish jarayonida ishtirokchidan biror bir talab bo'yicha tasdiqlovchi hujjat so'ralgan bo'lsa, hujjatni fayl ko'rinishida yuklash zarur.

5.3 Elektron Tanlov:

-Ishtirokchilarning zakalati operator tomonidan g'olib aniqlangunga qadar band qilib qo'yiladi. Elektron tanlov tanlov g'olibining zakalati shartnoma tuzilguniga qadar band qilib qo'yiladi. Bunda g'olib shartnoma tuzishni rad etgan taqdirda, unga zakalat summasi qaytarib berilmaydi va mazkur mablag'lar operator tomonidan davlat buyurtmachilarining tegishli hisobvarag'iga (byudjet buyurtmachisining byudjetdan tashqari tegishli hisobvarag'iga) o'tkazib beriladi.

5.4 Buyurtmachi taklifni ta'minlash summasi to'lanishini talab qilmaydi va ta'minlash to'g'risidagi hujjatni bir ish kuni davomida qaytaradi yoki quyidagi voqealardan biri yuz berganidan keyin uning qaytarilishini ta'minlaydi:

taklifni ta'minlashning amal qilish muddati tugashi;

shartnomaning kuchga kirishi va ushbu shartnomaning bajarilishi ta'minlanishi, agar bunday ta'minlash davlat xaridi shartlarida talab etilsa;

davlat xaridlarining bekor qilinishi;

takliflarni yuborishning oxirgi muddati tugaguniga qadar taklifning chaqirib olinishi.

5.5 Operator elektron Tanlov natijasida shartnoma tuzilganidan so'ng, bir ish kuni davomida zakalatni banddan yechadi va uni ijrochining tegishli shaxsiy hisob raqamiga qaytaradi.

Portal, elektron Tanlovning yakunlariga ko'ra, bitimning haqiqiy summasidan operatorning vositachilik yig'imini ishtirokchining zakalat to'lovlaridan ushlab qoladi. Ishtirokchilarning zakalati banddan yechilganidan so'ng zakalat mablag'lari, ularning topshiriqlariga asosan boshqa elektron davlat xaridlarida zakalat to'lovlari sifatida foydalanilishi mumkin yoki xizmat ko'rsatadigan banklardagi ularning hisobraqamlariga qaytariladi.

6 Tanlov takliflarini baholash tartibi

6.1 Elektron Tanlov xarid komissiyasi tomonidan belgilangan muddatda o'tkazilganda elektron tizim avtomatik ravishda ishtirokchilar tomonidan joylashtirilgan va ularning Tanlov

takliflarini tashkil etuvchi elektron hujjatlarni ko'rish imkoniyatini beradi.

Ishtirokchi tomonidan biriktirilgan fayllar uning Tanlov taklifida ko'rsatilgan ma'lumotlariga mos bo'lishi hamda elektron tizimdagi elektron maydonlar to'ldirilishi kerak.

Elektron tizim ishtirokchi taklif etgan narxni boshlang'ich narxga muvofiqligini va elektron maydonlarning to'ldirilganligini hamda biriktirilgan fayllarning mavjudligini tekshiradi. Ishtirokchi tomonidan taklif etilgan narx boshlang'ich narxdan yuqori bo'lsa, shuningdek, to'ldirilmagan maydonlar mavjud bo'lsa yoki biriktirilgan fayllar to'liq bo'lmasa, elektron tizim rad etish sababini ko'rsatgan holda ishtirokchining Tanlov taklifini rad etadi. Biriktirilgan fayllardagi ma'lumotlarni ishtirokchining Tanlov taklifida ko'rsatilgan ma'lumotlarga muvofiqligini tekshirish xarid komissiyasining topshirig'iga asosan ishchi guruh tomonidan amalga oshiriladi.

6.2 Tanlov takliflarini baholash quyidagi ketma-ketlikda amalga oshiriladi:

Tanlov taklifining Tanlov hujjatlarida ko'rsatilgan talablarga mos ravishda rasmiylashtirilganligini tekshirish;

ishtirokchining malaka hujjatlari (Tanlov hujjatlari talablarga muvofiq) topshirilgan baholash;

Tanlov taklifining texnik qismidagi hujjatlari tasdiqlangan mezonlar asosida baholash;

Tanlov taklifining narx qismini baholash.

Bunda elektron tizim Tanlov taklifining malaka, texnik va narx qismlarida mavjud bo'lgan ma'lumotlarni Tanlov taklifining oldingi qismi baholanishi yakunlangandan so'ng ketma-ketlik bilan oshkor qilinishini ta'minlaydi.

6.3 Elektron Tanlov ishtirokchilari tomonidan tuzilgan hujjatlar ro'yxati ushbu yo'riqnomaning 1-ilovasida keltirilgan.

6.4 Tanlov takliflarini baholash va Tanlov g'olibini aniqlash Tanlov hujjatlari belgilangan ketma-ketlik, tartib, mezonlar va uslublar asosida amalga oshiriladi.

6.5 Ishtirokchi quyidagi hollarda Tanlovda ishtirok etishdan chetlashtiriladi:

- u to'g'risida Insofsiz ijrochilarning yagona reestrda qayd mavjud bo'lsa;

- imtiyozli soliq rejimidagi moliyaviy operatsiyalarni amalga oshirishda malumotlarni oshkor qilish va taqdim etishni nazarda tutmaydigan davlatlar yoki hududlarda (offshor hududlar) ro'yxatdan o'tkazilgan yoki mazkur hududlarda bank hisobraqamlari ochgan ishtirokchilar;

- unda soliqlar va yig'imlarni to'lash bo'yicha muddati o'tgan qarzdorlik mavjud bo'lsa;

- o'ziga nisbatan to'lovga qobiliyatsizlik tartib-taomillari joriy etilgan bo'lsa;

- ishtirokchi xarid qilish hujjatlarining malaka, texnik va tijorat talablariga javob bermasa;

- ishtirokchi davlat xaridlari jarayonida davlat buyurtmachisi tomonidan biror-bir xatti-harakatning sodir etilishiga, qaror qabul qilinishiga yoki biror-bir xarid qilish tartib-taomilining qo'llanilishiga ta'sir o'tkazish maqsadida davlat buyurtmachisining yoki boshqa davlat organining istalgan hozirgi yoki sobiq mansabdor shaxsiga yoki xodimiga har qanday shakldagi haqni, ishga yollash to'g'risidagi taklifni yoxud istalgan boshqa qimmatbaho ashyoni yoki xizmatni bevosita yoxud bilvosita taklif qilsa, bersa yoki berishga rozilik bildirsa;

- ishtirokchi raqobatga qarshi harakatlarni sodir etsa yoki qonunchilikni buzgan holda manfaatlar to'qnashuvini keltirib chiqarsa, shuningdek affillanganlik hollari aniqlansa.

- ishtirokchisi tomonidan korrupsiya ko'rinishlariga yo'l qo'ymaslik bo'yicha arizani taqdim etmagan bo'lsa;

- ishtirokchi shartnoma tuzish huquqiga ega bo'lmasa;

- ishtirokchi barcha zarur hujjatlar to'plamini belgilangan muddatda taqdim etmasa yoki o'z vaqtida taqdim etilgan hujjatlar to'plami Tanlov hujjatlari talablariga javob bermasa;

- ishtirokchi tomonidan taqdim etilgan hujjatlardagi axborotning ishonchsiz ekanligi aniqlangan taqdirda.

- hujjatlarni topshirishning oxirgi sanasiga qadar davlat maxsus axborot portalining (birja) maxsus depozit hisob varag'iga belgilangan miqdorlarda zakalat summasini o'tkazmagan;

Ishtirokchini xarid qilish tartib-taomillarida ishtirok etishdan chetlatish to'g'risidagi qaror va buning sabablari xarid qilish tartib-taomillari haqidagi hisobotga kiritiladi hamda ular haqida tegishli ishtirokchiga darhol xabar beriladi.

6.6 Agar Tanlov taklifi Qonunning va Tanlov hujjatlarining talablariga muvofiq kelsa, u tegishli tarzda rasmiylashtirilgan deb topiladi. Tanlov taklifi Tanlov hujjatlarining talablariga muvofiqligi yoki nomuvofiqligi bo'yicha xarid komissiyasi mas'ul kotibining qarori uning asoslangan sabablari bilan xarid komissiyasi tomonidan tasdiqlangan qaror.

Ishtirokchining Tanlov taklifi talablarga mos kelmaganligi to'g'risidagi qaror, ushbu qaror qabul qilingan kunda ishtirokchining shaxsiy kabinetiga yuboriladi.

6.7 Tanlov takliflarini baholash vaqtida xarid komissiyasi elektron Tanlov ishtirokchilaridan ularning Tanlov takliflari yuzasidan tushuntirishlar so'rashga haqli. Mazkur jarayon elektron shaklda o'tkaziladi.

Tushuntirish berish jarayonida berilgan taklif va narx bo'yicha o'zgartirishlarga yo'l qo'yilmaydi.

- 6.8 Tanlov ishtirokchilarining takliflarini ko‘rib chiqish va baholash muddati takliflar berish tugagan paytdan e‘tiboran 10 (o‘n) ish kunidan oshishi mumkin emas.
- 6.9 Tanlov ishtirokchisi tomonidan taqdim etilgan har qanday hujjat va ma'lumotlar maxfiy hisoblanadi va ushbu tanlovga rasman aloqador bo‘lmagan shaxslarga oshkor etilmaydi.
Xarid komissiyasi taqdim etilgan takliflar va o‘tkazilayotgan tanlov doirasida tuzilgan boshqa hujjatlarning maxfiyligini kafolatlaydi.
Tanlov takliflarini ko‘rib chiqish va baholash bilan bog‘liq barcha ma'lumotlar maxfiy hisoblanadi va oshkor etilishi mumkin emas
- 7 Elektron Tanlovda ishtirok etish uchun taklif berish**
- 7.1 Tanlovda ishtirok etish uchun taklif davlat tilida va zaruriyatga qarab boshqa tillarda tayyorlanadi.
- 7.2 Elektron Tanlov o‘tkazilganda ishtirokchilar Tanlov takliflarini elektron ko‘rinishida o‘zlarining shaxsiy kabinetlari orqali elektron Tanlovni o‘tkazish to‘g‘risidagi e‘londa ko‘rsatilgan muddatdan kechiktirmay taqdim etadilar.
Har bir joylashtirilgan elektron hujjat ishtirokchining elektron raqamli imzosi bilan tasdiqlanadi.
- 7.3 Tanlov taklifi bilan birgalikda ishtirokchilar eskizlar, rasmlar, chizmalar, fotosuratlar va boshqa hujjatlarni fayl sifatida joylashtirishlari mumkin*.
**Agar davlat xaridlari shartlarida ishtirokchilar tomonidan xarid obyekti bo‘lgan tovar-xizmatlarning namunasi taqdim etilishi nazarda tutilgan bo‘lsa, xarid komissiyasi ularni ishtirokchilar tomonidan topshirishning alohida tartibini belgilaydi.*
- 7.4 Tanlov takliflarini ochish muddati yetib kelgunga qadar ular elektron Tanlov ishtirokchilari, shu jumladan xarid komissiyasi mas‘ul kotibi va a‘zolari tomonidan ko‘rilishiga yo‘l qo‘yilmaydi, bundan ushbu takliflarni taqdim etgan ishtirokchi mustasno. Mazkur talabning bajarilishiga operator javobgar hisoblanadi.
- 7.5 Elektron Tanlov ishtirokchisi:
- bitta lotga faqat bitta Tanlov taklifini berishga haqli
- taqdim etilayotgan axborot va hujjatlarning haqiqiyliги va to‘g‘riligi uchun javobgar bo‘ladi;
- Tanlov takliflarini berish muddati tugaguniga qadar berilgan Tanlov taklifini qaytarib olishga yoki unga o‘zgartirishlar kiritishga haqli.
- 7.6 Joylashtirilgan e‘londa ko‘rsatilgan muddat va vaqtda elektron tizim Tanlov takliflarini qabul qilishni to‘xtatadi.
- 7.7 Ishtirokchining texnik taklifi quyidagi hujjatlarni o‘z ichiga olishi lozim:

- texnik taklif mazkur yo‘riqnomaga ilova qilingan 6-shakl ilovasiga muvofiq taklif etilayotgan tovarlar texnik tavsiflarining qiyosiy jadvali;
 - yetkazib beriladigan tovarlar rasmiy kafolatga ega bo‘lishi va O‘zbekiston Respublikasidagi servis markazi tomonidan xizmat ko‘rsatilishi to‘g‘risida xat.
- 7.8 Ishtirokchining narx taklifi elektron tizimning tegishli bo‘limiga kiritiladi.
- 8 Tanlov takliflarini taqdim etish muddatini uzaytirish**
- 8.1 Zarur bo‘lgan hollarda buyurtmachi tomonidan Tanlov takliflarini berish muddati uzaytirilishi yoki elektron Tanlov ishtirokchilariga Tanlov takliflari qabul qilinishi muddati xarid komissiyasi qarori bilan ma‘lum vaqtga uzaytirish taklifi bilan murojaat qilishi mumkin.
- 8.2 Buyurtmachi xarid komissiyasi bilan kelishilgan holda Tanlovda ishtirok etish uchun takliflar berish muddati tugaydigan sanadan kamida bir ish kuni oldin Tanlov hujjatlariga o‘zgartishlar kiritish to‘g‘risida qaror qabul qilishga haqli.
- Tovarning (ishning, xizmatning) nomini o‘zgartirishga yo‘l qo‘yilmaydi. Bunda ushbu Tanlovda takliflar berish tugaydigan muddat kamida o‘n ish kuniga uzaytiriladi. Shu bilan bir vaqtda, agar e‘londa ko‘rsatilgan axborot o‘zgartirilgan bo‘lsa, Tanlov o‘tkazish to‘g‘risidagi e‘longa o‘zgartishlar kiritiladi.
- 9 Elektron Tanlov natijalarini sarhisob qilish**
- 9.1 Elektron tizim avtomatik ravishda **bal usulidan foydalangan holda** Tanlov taklifining texnik va narx qismlarini baholashni hisobga olgan holda eng yuqori bal to‘plagan ishtirokchini g‘olib sifatida aniqlaydi. Ikki yoki undan ortiq ishtirokchilar bir xil ball to‘plagan bo‘lsa, Tanlov taklifini barchadan oldin joylashtirgan ishtirokchi g‘olib deb topiladi.
- Zaxira ijrochisini aniqlash mazkur bandda belgilangan tartibda amalga oshiriladi.
- 9.2 Quyidagi hollarda Tanlov o‘tkazilmagan deb topiladi:
- agar Tanlovda bitta ishtirokchi ishtirok etgan yoki hech kim ishtirok etmagan bo‘lsa;
 - agar xarid komissiyasi texnik baholash bosqichida barcha takliflarni rad etgan bo‘lsa yoki faqat bitta taklif Tanlov bo‘yicha xarid qilish hujjatlari talablariga muvofiq kelsa.
- Bunday holatda buyurtmachi Tanlovni ayni o‘sha shartlarda hamda tovarga (ishga, xizmatga) doir ayni o‘sha mezonlarga va talablarga muvofiq takroran amalga oshirishi shart.
- 9.3 Tanlov takliflarini ko‘rib chiqish natijalariga ko‘ra xarid komissiyasining mas‘ul kotibi elektron tizimdagi mavjud shablonlar asosida xarid komissiya yig‘ilishining elektron bayonnomalarini shakllantiradi hamda tasdiqlash uchun xarid komissiyasi a‘zolariga yo‘llaydi.

Xarid komissiyasi a'zolari yig'ilishining elektron bayonnomalarini elektron raqamli imzolaridan foydalangan holda tasdiqlaydi. Elektron bayonnomadan ko'chirma portalda avtomatik ravishda e'lon qilinadi.

9.4 Elektron Tanlovning istalgan ishtirokchisi Tanlov takliflarini ko'rib chiqish va baholash bayonnomasi e'lon qilinganidan so'ng Buyurtmachiga elektron Tanlov natijalari bo'yicha tushuntirishlarni taqdim etish to'g'risida so'rov yuborishga haqli.

Buyurtmachi bunday so'rov kelib tushgan sanadan e'tiboran uch ish kuni ichida elektron Tanlov ishtirokchisiga tegishli tushuntirishlarni taqdim etishi shart.

10 Boshqa shartlar

10.1 Tanlov g'olibi tuzilayotgan shartnomaning umumiy summasining 3 foizi miqdorida shartnoma majburiyatlarini bajarish kafolatini (zakalat yoki bank kafolati shaklida) taqdim etadi.

10.2 Elektron Tanlov ishtirokchisi Tanlov hujjatlaridagi talablarni tushuntirish talabi bilan buyurtmachiga ochiq elektron chat orqali Tanlov takliflarini berish muddati tugaydigan sanadan kamida ikki ish kuni oldin so'rov yuborishga haqli.

Mazkur so'rov kelib tushgan sanadan e'tiboran ikki ish kuni ichida Buyurtmachi, agar ushbu so'rov Buyurtmachiga takliflar berish muddati tugaydigan sanadan kamida ikki ish kuni oldin kelib tushgan bo'lsa, Tanlov bo'yicha xarid qilish hujjatlarining qoidalariga doir tushuntirishlarni yuboradi. Tanlov bo'yicha xarid qilish hujjatlarining qoidalariga doir tushuntirishlar ularning mazmun-mohiyatini o'zgartirish kerak.

10.3 Elektron Tanlov ishtirokchisi Tanlov takliflarini berish muddati tugaguniga qadar berilgan Tanlov taklifini qaytarib olishga yoki unga o'zgartirishlar kiritishga haqli.

10.4 Buyurtmachi g'olib bo'lgan taklif akseptiga qadar istalgan vaqtda davlat xaridini bekor qilish huquqiga ega. Davlat xaridi bekor qilingan taqdirda Buyurtmachi bunday qaror qabul qilingandan keyin uch ish kuni ichida elektron tizim orqali maxsus axborot portalida mazkur qarorning asoslantirilgan sabablarini e'lon qiladi.

11 Tanlov natijalari bo'yicha shartnoma tuzish

11.1 Elektron Tanlov natijalari bo'yicha shartnoma Tanlov hujjatlarida va Tanlov g'olibi taklifida ko'rsatilgan shartlar asosida g'olib aniqlangan vaqtdan boshlab 10 ish kunlik muddatdan kechiktirmasdan elektron hujjat shaklida tuziladi. Shartnoma tomonlarning elektron raqamli imzolari bilan tasdiqlanadi va Shartnomalarning yagona reestriga kiritiladi.

11.2 G'olib shartnoma tuzishdan bosh tortgan taqdirda unga zakalat summasi qaytarib berilmaydi davlat maxsus axborot portalining (birja) maxsus depozit hisob varag'idan buyurmachining hisob rakamiga o'tkazib beriladi. Agar xarid komissiyasi tomonidan zaxiradagi g'olib aniqlangan bo'lsa, shartnoma tuzish va unga doir majburiyatlarni bajarish

huquqi zaxiradagi g'olibga o'tadi. Bunda zaxiradagi g'olib, g'olib tomonidan taklif etilgan narxda (bundan zaxiradagi g'olib taklif etgan narx g'olib tomonidan taklif etilgan narxdan past bo'lgan hollar mustasno) shartnoma tuzadi yoki shartnoma tuzishdan bosh tortishi mumkin. Agar xarid komissiyasi tomonidan zaxiradagi g'olib aniqlanmagan bo'lsa yoki zaxiradagi g'olib shartnoma tuzishdan bosh tortsa, Buyurtmachi yangi Tanlov o'tkazadi.

Tanlov takliflarini baholash ketma-ketligi:

Tanlov takliflarini baholash quyidagi ketma-ketlikda amalga oshiriladi:

- Tanlov taklifining Tanlov hujjatlarida ko'rsatilgan talablarga mos ravishda rasmiylashtirilganligini tekshirish (1-jadval).
- Tanlov taklifining texnik qismini baholash (2-jadval).
- Tanlov taklifining narx qismini baholash (3-jadval).

Bunda elektron tizim Tanlov taklifining malaka, texnik va narx qismlarida mavjud bo'lgan ma'lumotlarni Tanlov taklifining oldingi qismi baholanishi yakunlangandan so'ng ketma-ketlik bilan oshkor qilinishini ta'minlaydi

Elektron Tanlovda ishtirok etish uchun ishtirokchilar tomonidan rasmiylashtiriladigan hujjatlar RO'YXATI

1-son jadval

t/r	Tanlovda ishtirok etish uchun ishtirokchilar tomonidan tuziladigan hujjatlar va ma'lumotlar	Izoh
1	Xarid komissiyasi raisi nomiga elektron Tanlovda ishtirok etish uchun ariza	1-shaklga muvofiq rasmiylashtiriladi
2	Quyidagilarni tasdiqlovchi kafolat xati: - ishtirokchi qayta tashkil etish (bo'linishi, birlashish) tugatish bosqichida emasligi; - Buyurtmachi bilan sud yoki hakamlik muhokamasida ishi ko'rib chiqilmayotganligini; - ishtirokchining ilgari tuzilgan shartnomalar bo'yicha zarur darajada bajarilmagan majburiyatlarining mavjud emasligi; - o'ziga nisbatan to'lovga qobiliyatsizlik tartib-taomillarining joriy etilmaganligi.	2-shaklga muvofiq rasmiylashtiriladi
3	Tanlov ishtirokchisi haqida umumiy ma'lumot	3-shaklga muvofiq rasmiylashtiriladi
4	Ishtirokchining moliyaviy ahvoli to'g'risida ma'lumot va buxgalteriya hisoboti (oxirgi 3 yillik)	4-shaklga muvofiq rasmiylashtiriladi
5	Korrupsiya ko'rinishlariga yo'l qo'ymaslik bo'yicha ariza	5-shaklga muvofiq rasmiylashtiriladi
6	Xarid komissiyasi raisi nomiga Texnik taklif	6-shaklga muvofiq rasmiylashtiriladi
7	Tashkilotning davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi tasdiqlovchi hujjat	Hujjat mavjud bo'lmagan taqdirda, ishtirokchi keyingi bosqichga qo'yilmaydi
8	Soliqlar va yig'imlarni to'lash bo'yicha muddati o'tgan qarzdorlikning mavjud emasligi to'g'risida ma'lumot	Vakolatli organdan ma'lumotnoma taqdim etiladi, agar muddati o'tgan qarzdorlik mavjud bo'lsa, ishtirokchi Tanlovda ishtirok etishdan chetlashtiriladi

9	Ishtirokchining ta'rischilari to'g'risida ma'lumotlar	Taklif bergan ishtirokchining ta'rischisi aynan bir yuridik va jismoniy shaxs bo'lgan taqdirda ishtirokchilar xarid savdolaridan chetlatiladi
---	---	---

Izoh: jadvaldagi birorta hujjat talab darajasida rasmiylashtirilib taqdim etilmagan taqdirda ushbu ishtirokchi diskvalifikatsiya etiladi.

ISHTIROKCHINING BLANKASIDA

2025-yil “_____” _____dagi
_____ -son

Xarid komissiyasiga

ARIZA

_____ (Tanlov predmeti nomi) yetkazib berish bo'yicha Tanlov hujjatlarini, so'rovlarimizga oligan javoblarni o'rganib chiqib, biz, quyidagi imzo chekuvchi _____ (Tanlov ishtirokchisi nomi), Tanlov hujjatlariga muvofiq elektron Tanlovda ishtirok etish niyat bildiramiz.

Shu munosabat bilan, quyidagi hujjatlarni yubormoqdamiz:

1. Elektron Tanlov ishtirokchisi haqidagi umumiy ma'lumot;
2. _____varaqda malaka hujjatlari to'plami (varaqlar soni ko'rsatilsin, broshyuralar, bukletlar, kompakt-disklar va boshqalar taqdim etilganda, ularning miqdori ko'rsatilsin);
3. Texnik taklif hujjatlari (Tanlov hujjatlarida qayd etilgan);
4. Boshqa hujjatlar (*boshqa hujjatlar taqdim etilgan taqdirda, nomi va varaqlarning sonini ko'rsating*).

Taklifni tayyorlash uchun mas'ul shaxsning to'liq F.I.Sh.:

Bog'lanish uchun telefon/faks: _____

Elektron pochta manzili: _____

Rahbar yoki vakolatli shaxsning F.I.Sh. va imzosi

MO'.

ISHTIROKCHINING BLANKASIDA

2025-yil “_____” _____dagi
_____ -son

Xarid komissiyasiga

KAFOLAT XATI

Ushbu

xat

bilan

(*ishtirokchi nomi*)

- Qayta tashkil etish, tugatish yoki to‘lovga qobiliyatsizlik bosqichida emasligi;
- Buyurtmachi bilan sud yoki arbitraj muhokamasi holatida emasligini;
- Bankning offshor zonalarda ro‘yxatdan o‘tkazilmaganligini;
- Buyurtmachi bilan avval tuzilgan shartnomalar bo‘yicha lozim darajada bajarilmagan majburiyatlari yo‘qligini tasdiqlaymiz.

Imzolar:

Rahbar F.I.Sh. _____

Bosh hisobchi (moliya bo‘limi boshlig‘i) F.I.Sh. _____

Huquqshunos F.I.Sh. _____

MO‘.

to'g'risida umumiy ma'lumot

1	Yuridik shaxsning yuridik shaklini ko'rsatgan holda tashkilot nomi	
2	Ro'yxatdan o'tganlik to'g'risidagi ma'lumotlar (ro'yxatga olingan sana, ro'yxatga olish raqami, ro'yxatga olish organining nomi)	
3	Yuridik manzil	
4	Aloqa telefoni, faks, elektron pochta	
5	To'liq bank rekvizitlari	
6	Faoliyatining asosiy yo'nalishlari	

Muhr

imzo

TANLOV ISHTIROKCHISINING MOLIYAVIY HOLATI (*)

Tanlov ishtirokchisining nomi: _____

(valyutani ko'rsating)

AKTIV	2022-y.	2023-y.	2024-y.	PASSIV	2022-y.	2023-y.	2024-y.
I. Uzoq muddatli aktivlar				I.O'z mablag'lari manbalari			
Asosi vositalar (qoldiq qiymati)				Ustav kapitali			
Nomoddiy aktivlar (qoldiq qiymati)				Taqsimlanmagan foyda (qoplanmagan zarar)			
				Maqsadli tushumlar			
Qimmatli qog'ozlar				II.Majburiyatlar			
Kapital qurilmalar				Uzoq muddatli majburiyatlar, qarzlilar			
Investitsiyalar				Kreditor qarzdorlik:			
II.Joriy aktivlar				shu jumladan, muddati o'tgani			
Ishlabchiqarish zaxiralari				shu jumladan, byudjet bo'yicha qarzdorlik			
Tugallanmagan ishlab chiqarish				shu jumladan, ish haqi bo'yicha qarzdorlik			
Tayyor mahsulot							
Debitor qarzdorlik							
Pul mablag'lari							
Boshqa joriy aktivlar							
Balans aktivi bo'yicha jami (I.+ II. Bo'limlar)				Balans passivi bo'yicha jami (I.+ II. Bo'limlar)			

MOLIYAVIY NATIJALAR

(valyutani ko'rsating)

Ko'rsatkichlar nomi	2022-y.	2023-y.	2024-y.
1.Sotishdan sof tushum			
2.Sotilgan mahsulotlarning tannarxi			
4. Ma'muriy xarajatlar			
5.Boshqa xarajatlar			
6. Boshqa daromadlar			
7. Foyda solig'i to'lagunga qadar foyda (zarar)			
8. Foyda solig'i			
9. Foyda (zarar)			

Rahbar _____

Bosh hisobchi _____

MO'.

Sana: 20__y.

“ ”

(*) Moliyaviy holati boshqa me'zonlar bilan belgilanadigan kompaniyalar uning moliyaviy holatini belgilaydigan boshqa shaklni taqdim etishlari mumkin. Buxgalteriya hisoboti nusxasi (oxirgi 3 yil) ilova qilinadi.

ISHTIROKCHINING BLANKASIDA

2025-yil “_____” _____dagi
_____ -son

Xarid komissiyasiga

**Korrupsiya ko‘rinishlariga yo‘l qo‘ymaslik bo‘yicha
ARIZA**

Ushbu xat bilan

_____ :
(ishtirokchi nomi)

a):

- O‘zbekiston Respublikasi “Davlat xaridlar to‘g‘risida”gi Qonuni talablariga rioya etish;
- Buyurtmachi tomonidan biror-bir xatti-harakatning sodir etilishiga, qaror qabul qilinishiga yoki biror-bir xarid qilish tartib-taomilining qo‘llanilishiga ta’sir o‘tkazish maqsadida Buyurtmachining yoki boshqa davlat organining istalgan yoki sobiq mansabdor shaxsiga yoki xodimiga har qanday shakldagi haqni, ishga yollash to‘g‘risidagi taklifni yoxud istalgan boshqa qimmatbaho ashyoni yoki xizmatni bevosita yoxud bilvosita taklif qilmaslik, bermaslik yoki berishga rozilik bildirmaslik;

- raqobatga qarshi harakatlarni sodir etmaslik, shuningdek affilanganlik hollariga yo‘l qo‘ymaslik;

- firibgarlik, ma’lumotlarni soxtalashtirish va korrupsiyani oldini olish;

- yolg‘on yoki soxta hujjatlarni taqdim etmaslik, ayni bitta lotda ishtirok etgan affilangan shaxslar yoki manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida ma’lumotlarni ochib berish majburiyatini o‘z zimmasiga olishini;

b):

- Buyurtmachi bilan manfaatlar to‘qnashuviga ega emasligini, ijrochini tanlash bo‘yicha qaror qabul qilish huquqiga ega yaqin qarindoshlarning mavjud emasligini;

- narxlarni yoki ishtirokchilarni saralash natijalarini buzib ko‘rsatish maqsadida boshqa ishtirokchilar bilan oldidan til biriktirmasligini tasdiqlaydi.

Imzolar:

Rahbarning F.I.Sh. _____

Bosh hisobchi (moliya bo‘limi boshlig‘i) F.I.Sh. _____

Huquqshunos F.I.Sh. _____

MO‘.

ISHTIROKCHINING BLANKASIDA

_____ (Tanlov raqami va predmetini ko'rsating) Tanlov savdolari
bo'yicha

TEXNIK TAKLIF

2025-yil "____" _____dagi
_____-son

Xarid komissiyasiga

_____ (Tanlov predmeti nomi) yetkazib berish bo'yicha Tanlov hujjatlarini, so'rovlarimizga olingan javoblarni o'rganib chiqib, biz, quyidagi imzo chekuvchi _____ (Tanlov ishtirokchisi nomi), Tanlov hujjatlariga muvofiq _____ (taklif etilayotgan mahsulot nomi, soni, ishlab chiqaruvchisi) yetkazib berish yuzasidan taklif qilamiz.

Biz ushbu texnik taklifga to'liq rioya qilgan holda, Tanlov g'olibi bilan tuziladigan shartnoma bo'yicha mahsulotlarni yetkazib berish majburiyatini olamiz.

Biz Tanlov takliflarini berish muddatining oxirgi sanasi sifatida belgilangan kundan boshlab 90 ish kuni davomida ushbu taklif shartlariga rioya qilishga rozimiz. Ushbu Tanlov taklifi biz uchun majburiy bo'lib qoladi va ko'rsatilgan muddat tugashidan oldin istalgan vaqtda qabul qilinishi mumkin.

Ilovalar:

- Taklif etilayotgan mahsulotlarning texnik tavsiflarining qiyosiy jadvali;
- Texnik hujjatlar (broshyuralar, texnik ma'lumotlar varag'i, foydalanish yo'riqnomalari va boshqalar yoki taklif qilinadigan mahsulotning to'liq va batafsil tavsifini o'z ichiga olgan boshqa hujjatlar).

(vakolatli shaxs imzosi)

(vakolatli shaxs lavozimi va F.I.Sh.)

MO'.

Sana: "____" _____ 2025-y.

Taklif etilayotgan mahsulotlarning texnik tavsiflarining qiyosiy jadvali

t/r	Parametr nomi	Texnik talablaridagi ko'rsatkich	Ishtirokchining taklifidagi ko'rsatkich	Izoh (talabga javob beradi/talabga javob bermaydi)
<i>Katta yoshdagi aholi orasida yuqumli bo'lmagan kasalliklar xavfli omillarining tarqalganligini o'rganish xizmatlari uchun (yetkazib beriladigan mahsulot nomi)</i>				
1.	Kompaniya asosiy xodimlari malakasi (tadqiqotni sifatli o'tkazish uchun quyida ko'rsatilganlarning har biri bo'yicha tegishli malaka va tajribaga ega bo'lgan xodimlar ro'yxatini taqdim etilishi kerak)	Loyiha rahbari-menejeri / Ijtimoiy fanlar bo'yicha mutaxassis <ul style="list-style-type: none"> • oliy ma'lumot va ijtimoiy fanlar (sotsiologiya yoki boshqa tegishli soha) bo'yicha kamida 15 yillik ish stajiga ega bo'lishi, sotsiologiya yo'nalishi bo'yicha ilmiy darajaga ega bo'lish; • uy xo'jaliklarida ma'lumotlar yig'ishni boshqarish, keng ko'lamlı sotsiologik va tibbiy-demografik tadqiqotlarni muvofiqlashtirish va amalga oshirish bo'yicha kamida 15 yillik ish stajiga ega bo'lishi, sotsiologiya yo'nalishi bo'yicha ilmiy darajaga ega bo'lish; 		
		2. Joylardagi koordinator: oliy yoki o'rta maxsus ta'limga ega bo'lishi; uy xo'jaliklarida ma'lumotlar yig'ishni boshqarish, keng ko'lamlı tadqiqotlarni muvofiqlashtirish va amalga oshirish bo'yicha kamida 5 yillik ish tajribasiga ega bo'lishi.		
		3. Biostatistika sohasidagi mutaxassis: <ul style="list-style-type: none"> • statistika, sotsiologiya, sog'liqni saqlash yoki tegishli sohada oliy yoki o'rta maxsus ma'lumotga ega bo'lishi; • statistik ma'lumotlar bazasini Excel formatida yaratish va tahlil qilish sohasida kamida 5 yillik ish tajribasiga ega bo'lishi. 		
2.	Kompaniya qushimcha xodimlari malakasi	1. Nazoratchilar/supervayzerlar: <ul style="list-style-type: none"> • oliy yoki o'rta maxsus ma'lumot va sotsiologik tadqiqotlar sohasida kamida 5 yillik ish tajribasiga ega bo'lishi; 		

Izoh: Ishtirokchining taklifidagi ko'rsatkichlar Taklif etilayotgan mahsulotlarning texnik tavsiflarining qiyosiy jadvali parametrlari Texnik talablaridagi ko'rsatkich bilan to'liq mos kelishi shart. Talablarning bitta band bo'yicha mos kelmasligi belgilangan texnik talablar bo'yicha ball berilmasligiga asos bo'ladi.

Ishtirokchi rahbarining yoki vakolatli shaxsning imzosi va F.I.Sh.

MO'.

I. Bosqich: Takliflarni texnik baholash:

Xarid komissiyasi tomonidan texnik takliflarni baholash korxonaning takliflari va hujjatlari asosida amalga oshiriladi. Tanlov ishtirokchilarining baholashdan o'tmagan takliflari diskvalifikatsiya qilinadi. Bunday holda, keyingi bosqichga (narx taklifi qismiga) o'tkazilmaydi.

№	Mezon	Baholash	Izoh
1	Xarid komissiyasi raisi nomiga elektron Tanlovda ishtirok etish uchun ariza 1-shakl	Mavjud – 2 ball Mavjud emas – 0 ball	Zarur
2	Quyidagilarni tasdiqlovchi kafolat xati: - ishtirokchi qayta tashkil etish (bo'linish, birlashish) tugatish bosqichida emasligi; - Buyurtmachi bilan sud yoki hakamlik muhokamasida ishi ko'rib chiqilmayotganligi; - bankning offshor zonalarda ro'yxatdan o'tkazilmaganligini; - ishtirokchining ilgari tuzilgan shartnomalar bo'yicha zarur darajada bajarilmagan majburiyatlarining mavjud emasligini; - o'ziga nisbatan to'lovga qobiliyatsizlik tartib-taomillarining joriy etilmaganligi. 2-shakl	Mavjud – 2 ball Mavjud emas – 0 ball	Zarur
3	Tanlov ishtirokchisi haqida umumiy ma'lumot 3-shakl	Mavjud – 2 ball Mavjud emas – 0 ball	Zarur
4	Ishtirokchining moliyaviy ahvoli to'g'risida ma'lumot va buxgalteriya hisoboti (oxirgi 3-yillik) 4-shakl	Mavjud – 2 ball Mavjud emas – 0 ball	Zarur
5	Korrupsiya ko'rinishlariga yo'l qo'ymaslik bo'yicha ariza 5-shakl	Mavjud – 2 ball Mavjud emas – 0 ball	Zarur
6	Xarid komissiyasi raisi nomiga Texnik taklifi hamda Taklif etilayotgan mahsulotlarning texnik tavsiflarining qiyosiy jadvaliga mosligi-6-shakl va uning ilovasi. <i>Маълумоти ва белгиланган таъжи учун (Назоратчиларга 2 баллдан, Жойлардаги координатор, Биостатистларга – 5 баллдан, Лойиҳа рахбари -15 баллдан)</i>	Mavjud – 40 ball Mavjud emas – 0 ball	Zarur
7	Ishtirokchining tibbiy sotsiologik tadqiqotlar sohasidagi oldingi tajribasi	Mavjud – 20 ball Mavjud emas – 0 ball	Zarur
	Jami ball:	70	

Izoh: Texnik baholash jami ballar 70 ballni tashkil etadi, 60 balldan past to'plagan ishtirokchi keyingi bosqichga qo'yilmaydi.

3-son jadval

II. Bosqich: Takliflar narxini baholash:

Xarid komissiyasi tomonidan narx taklifi hujjatlari asosida amalga oshiriladi. Takliflarni narx qismini baholash tizim operatori tomonidan amalga oshiriladi.

№	Mezon	Baholash	Izoh
1	Narx taklifi	Eng past narxni taklif etgan ishtirokchi – 30 ball	Shu bilan birga, narx shkalasi ishtirokchilarning takliflari soniga qarab shakllantiriladi.

Izoh: Savdo ishtirokchilarining xorijiy va mahalliy ishtirokchilari narxlarini to'g'ri taqqoslash uchun baholashda O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida nazarda tutilgan hollarda tegishli hujjatlar (soliqlar, bojxona to'lovlari va boshqa majburiy to'lovlar) hisobga olinadi.

Sog'lom turmush tarzini shakllantirish va ijro intizomi bo'yicha direktor o'rinbosari

N.Alixanova

Sog'lom turmush tarzini shakllantirish boshqarmasi boshlig'i

F.Taxirova

Sog'lom turmush tarzini shakllantirish boshqarmasi bosh mutaxassisi

M.Shakirova

Bosh hisobchi

O.Manazarov

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bosh mutaxassis

O'.Maxmanazarov

Yuriskonsult

I.Bayburina

Kotib

F.Mamanazarova

Qo'shimcha kuzatuv komissiya a'zolari

Sog'lom turmush tarzini shakllantirish boshqarmasi bosh mutaxassisi

Sh. Shukurov

Xalqaro hamkorlikni rivojlantirish va monitoring bo'limi bosh mutaxassisi

R. Yuldashev

II. Tanlovning texnik qismi.

"TASDIQLAYMAN"
Xarid komissiyasi raisi,
Salomatlik va strategik rivojlanish
instituti direktori
_____ **A. Inoyatov**
_____ **2025-yil**



Katta yoshdagi aholi orasida yuqumli bo'lmagan kasalliklar xavfli omillarining tarqalganligini
o'rganish xizmatlari uchun
TEXNIK TOPSHIRIQ

_____ varaqlarda

_____ dan boshlab amal qiladi

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG'LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI

SALOMATLIK VA STRATEGIK RIVOJLANISH INSTITUTI

Kattalar orasida yuqumli bo'lmagan kasalliklar xavf omillarining tarqalish darajasini o'rganish bo'yicha mahalliy kompaniyaga TEXNIK TOPSHIRIQ

I. TOPSHIRIQNING MAQSADI

Jahon sog'liqni saqlash tashkilotining (JSST) STEPS (yuqumli bo'lmagan kasalliklarning xavf omillarini bosqichma-bosqich monitoring qilish) uslubiyoti va vositalaridan foydalangan holda kattalar orasida yuqumli bo'lmagan kasalliklar xavf omillarining tarqalish darajasini o'rganish bo'yicha tadqiqotni o'tkazishda yordam ko'rsatish.

II. ISH HAJMI

JSSTning STEPS tadqiqotini o'tkazish uchun mahalliy kompaniyaga (kompaniya) quyidagi tadbirlarni amalga oshiradi:

- 1-ilovaga muvofiq kerakli asbob-uskunalar (elektron tarozi va bo'y o'lchagich (yoki stadiometr), elektron tonometr, portativ biokimyoviy analizator, o'lchov tasmasi, asbob-uskunalarini tashish uchun sumka) va sarflov materiallari (biokimyoviy analizator uchun reagentlar va qonni tekshirish uchun zarur bo'lgan materiallar — qo'lqoplar, paxta shariklari, spirt, pipetkalar sarflov materiallarini utilizatsiya qilish uchun idishlar va boshqalar) sotib olish.
- 2-ilovaga muvofiq anketalar va boshqa tadqiqot vositalari (tadqiqotchilar uchun yo'riqnoma, maxsus shakllar va boshqalar)ni chop etish.
3. Tadqiqot uchun tanlov birliklarini tanlash (uy xo'jaliklari/respondentlar).
4. Ma'lumotlarni yig'ish uchun tadqiqotchilar guruhini shakllantirish.
5. Joylarda ma'lumotlarni yig'ish uchun kalendar rejasini ishlab chiqish.
6. 3-ilovaga muvofiq tadqiqotchilar guruhini uchun ma'lumotlarni yig'ish uslubiyoti bo'yicha o'qitish.
7. Tanlov birliklarini tanlab olish uslubiyoti va tadqiqot vositalarini sinovdan o'tkazish hamda sinov natijalari asosida anketani qayta ko'rib chiqish.
8. Ma'lumotlarni yig'ish uchun joylarda "dala" ishlarini o'tkazish va anketalarni to'ldirish yoki ma'lumotlar elektron bazasini yaratish.

III. TADQIQOT USLUBIYOTI

Tadqiqot uslubiyoti JSST tomonidan ishlab chiqilgan STEPS uslubiyoti tamoyillariga asoslan holda o'tkaziladi.

Tanlov hajmi

Tanlov hajmi standart JSST STEPS uslubiyoti asosida aniqlanadi. Bunda 18-69 yoshdagi respondentlar soni 4320 nafarni tashkil etadi, bu esa respublika miqyosida respondentlar ma'lumotlarini jins va uchta yosh guruhi (18-29 yosh, 30-44 va 45-69 yosh) bo'yicha 95% ishonch oralig'ida (IO) statistik jihatdan ishonchli taqqoslash imkonini beradi.

Tanlov hajmini hisoblash

Yosh guruhi	Respondentlarning minimal soni			Klaster tanlovini tanlab olish uchun dizayn effekti (Deff=1,5)	Dizayn ta'sirini hisobga olgan holda respondentlar soni	Kutilayotgan yo'qotishlar darajasi	Mumkin bo'lgan yo'qotishlarni hisobga olgan holda respondentlarning umumiy soni (IO 95%)
	Jami	Shu jumladan					
		Erkak IO 95%	Ayol IO 95%				
	(1) = (2)+(3)	(2)	(3)	(4)	(5) = (1)*(4)	(6)	(7)=(5)/(6)
18-29 yosh	768	384	384	1,5	1152	0,8	1440
30-44 yosh	768	384	384	1,5	1152	0,8	1440
45-69 yosh	768	384	384	1,5	1152	0,8	1440
Jami							4320

Respondentni tanlash tamoyillari va vositalari

Respondentlarni tanlash JSSTning STEPS uslubiyoti asosida amalga oshiriladi:

- har bir kishi tanlanish bosqichlarida tadqiqotda ishtirok etish uchun bir xil imkoniyatga ega bo'lishi kerak;
- JSSTning tanlab olish vositasi Excel formatidagi STEPSsampling.xls va «RandHold» vositasi yordamida tasodifiy tanlash.

Reprezentativ statistik tanlov uchun tasodifiy sonlar texnikasidan foydalangan holda vaznlangan (inglizcha "weighting") ko'p bosqichli klaster tanlash dizayni qo'llaniladi.

Tasodifiy tanlov quyidagi bosqichlardan iborat:

- birlamchi tanlov birligini tanlash – 50 ta tuman va shaharni tanlash;
- ikkilamchi tanlov birligini tanlash - tanlab olingan tuman va shaharlardan 150 ta mahallani tanlash;
- uchlamchi tanlov birligini tanlash — tanlab olingan mahallalardan 28 yoki 29 ta xonadon ni tanlash;
- joylarda uy xo'jaligi a'zolari orasidan respondentlarni tasodifiy usulni qo'llagan holda tanlab olish.

Ma'lumotlarni yig'ish usuli

Ma'lumotlarni yig'ish 3 bosqichda amalga oshiriladi:

1-bosqich: respondentlar o'rtasida so'rov o'tkazish.

2-bosqich: antropometrik (bo'y, vazn, bel, son aylanasi), fizik (qon bosimi, yurak urish soni) ko'rsatkichlarini o'lchash.

3-bosqich: biokimyoviy ko'rsatkichlarni o'lchash (ekspress usulda respondentlarning och qorinda qonida glyukoza va xolesterin miqdorini o'lchash).

Tadqiqot vositalari:

- anketa;
- antropometrik, fizik va biokimyoviy ko'rsatkichlar uchun asbob-uskunalar (bo'y va vazn elektron o'lchagich (yoki stadiometr), elektron tonometr, o'lchash tasmasi, reagentlar va portativ biokimyoviy analizator sarflov materiallari bilan).

IV. GEOGRAFIK QAMROV

Ma'lumotlar to'plash butun mamlakat bo'ylab 4320 nafar respondent orasida amalga oshiriladi.

V. KUTILAYOTGAN NATIJALAR

1. Tadqiqot o'tkazish uchun sotib olingan zarur jihozlar (elektron tarozi va bo'y o'lchagich (yoki stadiometr), elektron tonometr, portativ biokimyoviy analizator, o'lchash tasmasi, jihozlarni tashish uchun sumka) va sarflov materiallari (biokimyoviy analizator uchun reagentlar va tahlil qilish uchun zarur bo'lgan sarflov materiallari — qo'lqoplar, paxta shariklari, spirt, pipetkalar, sarflov materiallarini utilizatsiya qilish uchun idishlar).

2. Chop etilgan anketalar va boshqa tadqiqot vositalari (tadqiqotchilar uchun ko'rsatmalar, maxsus shakllar va boshqalar).

3. Sinov natijalari asosida qayta ko'rib chiqilgan anketalar.

4. Ma'lumotlar to'ldirilgan anketalar yoki ma'lumotlar elektron bazasi.

VI. BAJARISH MUDDATI

4 oy.

VII. HISOBDORLIK

Kompaniya barcha asosiy birlamchi materiallarni Salomatlik va strategik rivojlanish institutiga (keyingi o'rinlarda - Institut) taqdim etadi:

- sotib olingan jihozlar hamda ishlatilmagan sarflov materiallari;
- chop etilgan tadqiqot vositalari;
- to'ldirilgan anketalar/maxsus shakllar/elektron ma'lumotlar bazasi.

Kompaniya tadqiqotni o'tkazish davomida bajarilgan ishlar bo'yicha Institutga quyidagi jadvalda ko'rsatilgan hisobotlarni taqdim etadi.

Kompaniyaning hisobdorlik bo'yicha majburiyatlar

№	Hisobot turi	Mazmuni va tarkibi
1	Tayyorgarlik ishlari natijalari	Hisobot quyidagi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi: <ul style="list-style-type: none">• ma'lumotlarni yig'ish uslubiyoti sharhi;• tanlov birliklarini tanlash uslubiyoti sharhi;• tanlov birliklarining ro'yxati va ularning identifikatsiya raqamlari;• identifikatsiya raqamlari berilgan tadqiqot guruhining ro'yxati (nazoratchilar/supervayzerlar, intervyu oluvchilar va laborantlar);• identifikatsiya raqamlari berilgan tanlov birliklarining (tumanlar/shaharlar, mahallalar, xonadonlar/uy xo'jaliklari) ro'yxatlari;• tadqiqot vositalarini sinovdan o'tkazish natijalari;• sinov natijalarini hisobga olgan holda qayta ko'rib chiqilgan va moslashtirilgan tadqiqot vositalari;• viloyatlar, tumanlar/shaharlar va mahallalar kesimida joylardagi ishlarning batafsil kalendar rejasi.
2	Joylarda ma'lumot yig'ish natijalari	Hisobot quyidagi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi: <ul style="list-style-type: none">• o'tkazilgan tadqiqot natijalari (tumanlar/shaharlar, mahallalar, xonadonlar/uy xo'jaliklari kesimida amaldagi reja, ishtirok etgan tadqiqot guruhi, tasdiqlovchi hujjatlar va boshqalar);• tadqiqotda qatnashgan respondentlar ro'yxati va soni;

№	Hisobot turi	Mazmuni va tarkibi
		<ul style="list-style-type: none"> • tadqiqotda qatnashishdan bosh tortgan respondentlar ro'yxati va soni; • qamrovning to'liqligi to'g'risida ma'lumot, shu jumladan yo'qotishlarning sababi; • maxsus shakllar, to'ldirilgan anketalar yoki yagona elektron ma'lumotlar bazasi; • joylardagi ishlar jarayonidagi qiyinchiliklar.

Barcha hisobotlar ikki bosma nusxada va elektron shaklda kompakt diskda taqdim etiladi.

Tadqiqotni o'tkazish uchun yakuniy to'lov joylarda ma'lumotlarni yig'ish bo'yicha bajarilgan ishlar to'g'risida hisobot Institut va Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan tasdiqlanganidan keyin amalga oshiriladi.

VIII. KVALIFIKATSION TALABLAR

Kompaniyaning malakasi quyidagi talablarga javob berishi kerak:

- sotsiologik tadqiqotlar, sog'liqni saqlash sohasida tadqiqotlar, ayniqsa, uy xo'jaliklari orasida tadqiqotlar o'tkazish tajribasiga ega bo'lishi;
- maxsus dasturiy ta'minotdan foydalangan holda ma'lumotlarni statistik qayta ishlash va tahlil qilish bo'yicha tajribasiga ega bo'lishi.

Kompaniya tadqiqotni o'tkazish uchun quyida ko'rsatilganlarning har biri bo'yicha tegishli malaka va tajribaga ega bo'lgan xodimlar ro'yxatini taqdim etishi kerak:

1. Loyiha rahbari-menejeri / Ijtimoiy fanlar bo'yicha mutaxassis

- oliy ma'lumot va ijtimoiy fanlar (sotsiologiya yoki boshqa tegishli soha) bo'yicha kamida 5 yillik ish stajiga ega bo'lishi;
- uy xo'jaliklarida ma'lumotlar yig'ishni boshqarish, keng ko'lamli sotsiologik va tibbiy-demografik tadqiqotlarni muvofiqlashtirish va amalga oshirish bo'yicha kamida 5 yillik tajribaga ega bo'lishi;
- anketalarni to'ldirish va ularni to'ldirish sifatini tekshirish ko'nikmasiga ega bo'lishi;
- o'zbek va rus tillarida mukammal og'zaki va yozma muloqot ko'nikmalariga ega bo'lishi;
- axborot texnologiyalari bilan ishlash ko'nikmalari (Excel, Word, e-mail va boshqalar);
- xodimlar jamoasida samarali ishlash, bir vaqtning o'zida turli vazifalarni bajarish, faol va tirishqoqlik bilan ishlash, belgilangan muddatlarni hisobga olgan holda resurslarni samarali boshqarish uchun amaliy jihatdan salohiyati bo'lishi.

Quyidagi tajriba va ko'nikmalarga ega bo'lishi ustunlik beradi:

- ma'lumotlar elektron bazalarini tayyorlash va yaratish bo'yicha;
- tadqiqot natijalari bo'yicha tahliliy hisobotlarni tayyorlash.

2. Joylardagi koordinator:

- oliy yoki o'rta maxsus ta'limga ega bo'lishi;
- uy xo'jaliklarida ma'lumotlar yig'ishni boshqarish, keng ko'lamli tadqiqotlarni muvofiqlashtirish va amalga oshirish bo'yicha kamida 5 yillik ish tajribasiga ega bo'lishi;
- anketalarni to'ldirish va ularni to'ldirish sifatini tekshirish ko'nikmasiga ega bo'lishi;;
- muloqot, yetakchilik/tashkiliy qobiliyat va jamoada ishlash qobiliyatiga ega bo'lishi;
- tuman va viloyatlarda bir joydan boshqa joyga borish imkoniyati va xohish-istagi mavjudligi;

- o'zbek va rus tillarida og'zaki va yozma muloqot ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.

3. Biostatistika sohasidagi mutaxassis:

- statistika, sotsiologiya, sog'liqni saqlash yoki tegishli sohada oliy yoki o'rta maxsus ma'lumotga ega bo'lishi;
- statistik ma'lumotlar bazasini Excel formatida yaratish va tahlil qilish sohasida kamida 5 yillik ish tajribasi ga ega bo'lishi;
- muloqot qobiliyati va jamoada ishlash qobiliyati bo'lishi;
- o'zbek va rus tillarini bilish shart.

Quyidagi tajriba va ko'nikmalarga ega bo'lishi ustunlik beradi:

- maxsus dasturiy ta'minot (EpiInfo, SPSS yoki shunga o'xshash) yordamida ma'lumotlarni statistik ishlash va tahlil qilish tajribasi;
- sog'liqni saqlash sohasidagi tadqiqotlar bo'yicha ma'lumotlar bazalari bilan ishlash tajribasiga ega bo'lishi;
- ma'lumotlarni vaznlash, statistik dasturlardan foydalangan holda natijalarni aholiga ekstrapolyatsiya qilish, statistik ma'lumotlar uchun dasturlar tuzish tajribasiga ega bo'lishi.

4. Tadqiqot guruhi nazoratchilari /supervayzerlari va intervyu oluvchilar guruhi.

4.1. Nazoratchilar/supervayzerlar:

- oliy yoki o'rta maxsus ma'lumot va sotsiologik tadqiqotlar sohasida kamida 5 yillik ish tajribasiga ega bo'lishi;
- uy xo'jaliklarida respondentlar bilan so'rov o'tkazish, ma'lumotlar yig'ishni boshqarish, anketalarni to'ldirish va ularni to'ldirish sifatini tekshirish ko'nikmalariga ega bo'lishi;
- jamoa bilan ishlash qobiliyati, muloqot qobiliyati va ishga to'liq vaqtini sarflash imkoniyati ega bo'lishi;
- kompyuterda ishlash ko'nikmalariga ega bo'lishi;
- tuman va viloyatlarda bir joydan boshqa joyga borish imkoniyati va xohish-istagiga ega bo'lishi;
- o'zbek va rus tillarini bilish shart.

4.2. Ma'lumot yig'ish bo'yicha intervyu oluvchilar:

- o'rta maxsus ma'lumot va sotsiologik tadqiqotlar sohasida kamida 3 yillik ish stajiga ega bo'lishi;
- uy xo'jaliklarida respondentlar bilan so'rov o'tkazish, anketalarni to'ldirish ko'nikmalariga ega bo'lishi;
- harakatchanlik, jamoada ishlash qobiliyati, muloqot qobiliyatiga ega bo'lishi;
- kompyuterda ishlash ko'nikmalariga ega bo'lishi;
- tuman va viloyatlarda bir joydan boshqa joyga borish imkoniyati va xohish-istagiga ega bo'lishi;
- o'zbek va rus tillarini bilish shart. Bunda mahalliy tillarni/dialektlarni (qozoq, qoraqalpoq, tojik va boshqalar) bilish ustunlik hisoblanadi.

4.3. Laborantlar:

- Tibbiy o'rta maxsus ma'lumot;
- Laboratoriya yo'nalishi bo'yicha kamida 1 yil ish stajiga ega bo'lishi.

Zaruriyat tug'ilganda Kompaniya texnik va yordamchi xodimlarni jalb qilishi mumkin.

IX. ISH JARAYONINI TASHKIL ETISH

Kompaniya tadqiqotni Institut xodimlari bilan birgalikda amalga oshiradi. Xususan, Institut xodimi Rustam Yuldashev ish jarayonini tashkil etishga mas'ul xodim bo'lib hisoblanadi.

X. MAXFIYLIK VA MULKIY HUQUQLAR

Tadqiqot davomida olingan barcha ma'lumotlar maxfiy bo'lib, Institutning mulki hisoblanadi.

Tadqiqot o'tkazilganligi to'g'risida Institutni rasman xabardor qilgandan so'ng, Kompaniya ushbu tadqiqotni o'tkazish bilan bog'liq barcha hujjatlarni, shu jumladan to'ldirilgan anketalarni va elektron ma'lumotlar bazasini hamda sotib olingan asbob-uskunalarini Institutga taqdim etishi shart.

Tadqiqot natijalari Kompaniya tomonidan nashr etilishi yoki boshqa maqsadlarda ishlatilishi mumkin emas.

XI. KOMPANIYANING HISSASI

Kompaniya o'z taklifida kerakli xodimlarni kiritishi kerak (kamida 3 nafar "Kvalifikatsion talablar" bo'limida ko'rsatilgan). Kompaniyaning o'zi xodimlarni yollash va ularning xizmatlari uchun haq to'lash majburiyatini oladi.

Ma'lumotlarni to'plash uchun Kompaniya 1-ilovaga muvofiq asbob-uskunalar va sarflov materiallarini sotib oladi, 2-ilovada ko'rsatilgan tadqiqotchilar va respondentlar uchun qo'llanmalar, maxsus blankalar va so'rovnomalarni chop etadi, shuningdek, tadqiqot guruhini, asbob-uskunalar va sarflov materiallarini tadqiqot joylariga yetkazib berishni ta'minlaydi.

Kompaniya ma'lumotlarni yig'ish davrida foydalanilgan asbob-uskunaning xavfsizligi va funksional holati uchun javobgar bo'lib hisoblanadi.

Ma'lumotlar yig'ish sifatini ta'minlash maqsadida Kompaniya tadqiqotchilar guruhi uchun qisqa muddatli treninglar tashkil qiladi.

Kompaniya o'z kompyuter uskunalariga ega bo'lishi kerak.

XII. INSTITUT HISSASI

Institut Kompaniyaga topshiriqni bajarish uchun zarur bo'lgan mavjud hisobotlar va boshqa mavjud ma'lumotlarni taqdim etadi.

Institut respondentlar va tadqiqot vositalarini tanlash uslubiyotini moslashtirishda, tadqiqot guruhi uchun ma'lumotlar yig'ish uslubiyoti bo'yicha qo'llanma, shuningdek, ma'lumotlarni to'plash uchun maxsus shakllar va anketalarni tayyorlashda yordam beradi.

Joylardagi ishlar davomida Institut tomonidan uslubiy va maslahat yordami ko'rsatiladi. Xususan, ushbu tadqiqot o'tkazilayotgani to'g'risida Sog'liqni saqlash vazirligining rasmiy xatini mahalliy hokimiyat organlariga taqdim etadi, tadqiqotni o'tkazishda yordam berish uchun birlamchi tibbiy-sanitariya muassasalarining patronaj hamshiralari va laborantlarini jalb etishga ko'maklashadi.

Institut va uning hududiy bo'linma va bo'limlari vakillari respondentlarni tanlash va ma'lumotlarni to'plash jarayonini nazorat qiladi.

XIII. TADQIQOT UCHUN TAXMINIY ISH REJASI*

№	Natija	Oylar			
		1	2	3	4
1	Natija №1: Tayyorgarlik bosqichi				
1.1	Tadqiqot ma'lumotlarini yig'ish metodologiyasini aniqlashtirish				
1.2	Tadqiqotchilar guruhini shakllantirish (nazoratchilar, intervyu oluvchilar va laborantlar)				
1.3	Uskunalar va sarflov materiallarini sotib olish				
1.4	JSST STEPS anketalar, o'quv qo'llanmasining nusxasi va tadqiqotchilar uchun maxsus shakllarni ko'paytirish				
1.5	Tadqiqot guruhi (nazoratchi, intervyu oluvchilar, laborant) uchun ma'lumotlarni yig'ish metodologiyasi bo'yicha seminar o'tkazish				
1.6	Tanlov va so'rov instrumentlarini sinovdan o'tkazish				
1.7	Joylardagi ishlarni rejalashtirish				
1.8	Tayyorgarlik ishlari natijalari bo'yicha hisobot tayyorlash				
2	Natija №2: Ma'lumotlarni yig'ish				
2.1	Miqdoriy ma'lumotlar to'plami				
2.2	Excel formatida yagona ma'lumotlar bazasini yaratish				
2.3	Ma'lumotlar bazalarini qaytadan tekshirish va tozalash				
2.4	Joylardagi ma'lumotlarini yig'ish ishlari natijalari bo'yicha hisobot tayyorlash				

* Eslatma: Ish rejasi Kompaniya bilan muzokaralar davomida o'zgartirilishi mumkin

Antropometrik va biokimyoviy ko'rsatkichlarni o'lchash uchun sarflanadigan materiallar ro'yxati

№	Tovar nomi	Hisoblash mezonlari	Miqdor	O'qitish, sinovdan o'tkazish va ishlab chiqarish xarajatlari uchun talab qilinadigan miqdor	Umumiy miqdor, soni	Bitta o'ramdagi miqdor, dona	O'ramlar dagi sarflov materiallarining umumiy miqdori
1	Elektron pol tarozilari, dona (Весы напольные электронные, в шт.)	har bir intervyu oluvchilar guruhi uchun (zahirasi bilan)			18		
2	Bo'y o'lchagich (yoki stadiometr), dona (Ростомер или стадиометр, в шт.)				18		
3	O'lchov tasmasi, dona (Измерительная лента, в шт.)				18		
4	Elektron tonometr, dona (Электронный тонометр, в шт.)				18		
	Elektron tonometr uchun AA batareyalari, dona (har bir tonometr uchun 3 ta to'plam (1 to'plam 4 ta batareya, jami 12 ta batareya, 18x12=216) (Батарейки типа АА для электронного тонометра, в шт. (для каждого тонометра 3 комплекта (1 комплект 4 батарейки, всего 12 батареек))						
5	Sarflov materiallari to'plamiga ega portativ biokimyoviy analizator (glyukometr).						

	(Портативный биохимический анализатор (глюкомер) с набором расходных материалов)						
5.1	Portativ biokimyoviy analizator, dona. (Портативный биохимический анализатор, в шт.)				18		
5.2	Qonda glyukoza va liporpoteidlar darajasini o'lchash uchun portativ biokimyoviy analizator uchun quyidagi sinov tasmalari: (Тест полоски для портативного биохимического анализатора с целью измерения уровня содержания:)						
	— glyukoza, har bir flakonda (qadoqda) 50 dona (глюкозы, в упаковке 50 шт.)	har bir respondent uchun	4320	20%	5184	50	104
	— xolesterin, har bir flakonda (qadoqda) 25 dona (холестерина, в упаковке 25 шт.)	har bir respondent uchun	4320	20%	5184	25	207
	— yuqori zichlikdagi lipoproteinlari, flakonda (qadoqda) 25 dona (липопротеидов холестерина высокой плотности (ЛПВП), в упаковке 25 шт.)	har bir respondent uchun	4320	20%	5184	25	207
5.3	Portativ kimyo analizatori uchun tahlilning to'g'riligini tekshirish uchun nazorat eritmalari: (Контрольные растворы для проверки правильности выполнения анализа для	har bir intervyu oluvchilar guruhi uchun					

	портативного биохимического анализатора:)						
	- glyukoza uchun nazorat eritmalari, 2,5 ml flakonda (контрольные растворы для глюкозы, в флаконе 2,5 мл)						18
	- xolesterin uchun nazorat eritmalari, 2,5 ml flakonda (контрольные растворы для холестерина, в флаконе 2,5 мл)						18
	- yuqori zichlikdagi lipoproteinlari uchun nazorat eritmalari, 2,5 ml flakonda (контрольные растворы для ЛПВП, в флаконе 2,5 мл)						18
5.4	Pipetkalar, har bir qadoqda (25 dona) (Пипетки, в упак. (25 шт))	4320	20%	5184	25		207
5.5	AAA batareyalar, dona. (Батарейки типа AAA, в шт.)	Har bir glyukometr uchun 3 ta to'plam (3 dona)					54
5.6	Analizator uchun sumkacha, dona (Футляр для анализатора, в шт.)			18			
5.7	Analizatorni tozalash uchun 70% izopropil spirti eritmasi, flakonda, 1 flakonda 100 ml (70% раствор изопропиловый спирт для обработки анализатора, во флаконах, в 1 флаконе 100 мл)	har bir uskuna uchun					18

6	Planshetlar (agar ehtiyoj bo'lsa) (Планшеты (при необходимости))	har bir supervayzer va intervyu oluvchilar uchun			40		
7	Skarifikatorlar, uramada (100 dona) (Скарификатор, в упак. (100 шт))	har bir respondent uchun	4320	20%	5184	100	52
8	Inyeksiya uchun spirtli salfetkalar, paketda (100 dona) (Салфетки спиртовые для инъекций, в упак. (100 шт))		4320	20%	5184	100	52
9	Paxta shariklari (to'plari), uramlarda (20 dona) (Ватные шарики, в упак. (20 шт))		4320	20%	5184	20	259
10	Tibbiy qo'lqoplar, paketda (50 dona) shu jumladan: (Перчатки медицинские, в том числе, в упак. (50 шт))	har bir respondent uchun	4320				
10. 1	' — kichik o'lchamli, o'ramda (50 dona) (малого размера, в упак. (50 шт))	Qon oluvchi laborantlarnin g 20% shu o'lchamli tibbiy qo'lqoplarni ishlatadi	864		864	50	17
10. 2	' — katta o'lchamli, o'ramda. (50 dona) (большого размера, в упак. (50 шт))		864		864	50	17
10. 3	' — o'rtacha o'lchamli, o'ramda. (50 dona) (среднего размера, в упак. (50 шт))	Qon oluvchi laborantlarnin g 60% shu o'lchamli tibbiy qo'lqoplarni ishlatadi	2592	10%	2851	50	57

11	Tibbiy chiqindilar uchun paketlar (xaltachalar) 6 kg uchun, har bir paketga 100 dona. (Пакеты (мешки) для медицинских отходов для 6 кг, в упак. 100 шт.)	5 respondent uchun 1 paket	864	20%	1037	100	10
12	Qo'llarni dezinfektsiyalash uchun gel, 1 flakonda 100 ml. (Гель для дезинфекции рук, в 1 упак 100 мл.)	Har bir ishlatish uchun 1 ml, har bir respondent uchun 2 ml	4320	2	8640	100	86
13	Asbob-uskunalarni tashish uchun intervyu oluvchining sumkasi, dona. (Сумка интервьюера для транспортировки оборудования, в шт.)	Har bir intervyu oluvchilar guruhi uchun			18		
14	Uskunalar va sarflov materiallarini tashish uchun laborant sumkasi (Сумка лаборанта для транспортировки оборудования и расходных материалов)	Dona			18		

Tadqiqotchilar uchun chop etiladigan qo'llanmalar ro'yxati

№	Nomi	Tili	Jami nusxalar soni	Varaqlar soni	Chop etish uchun varaqlar soni	Texnik spetsifikatsiyalar			
						Turi	Qog'oz		Mahkamlash, laminatsiyalash
							Rangligi, format	Oqligi	
1	Supervayzerlar uchun STEPS tadqiqoti bo'yicha qo'llanmasi (Руководство по исследованию STEPS для супервайзеров)	o'zbekcha	10	100	1000	Ofset 80 gr	Oq-qora 2 tomonli chop etish, A4	80 % kam bo'lmagan holda	Prujina (plasmas yoki metall) bilan mahkamlash
2	Intervyu oluvchilar uchun STEPS tadqiqoti bo'yicha qo'llanmasi (Руководство по исследованию STEPS для интервьюеров)	o'zbekcha	30	86	4300	ofset 80 gr	Oq-qora 2 tomonli chop etish, A4	80 % kam bo'lmagan holda	Prujina (plasmas yoki metall) bilan mahkamlash
3	Laborantlar uchun ko'rsatmalar (Инструкция для лаборанта)	o'zbekcha	20	14	700				Metall skoba bilan
4	Mumkin bo'lgan javob kartalari, intervyu oluvchilar uchun tana massasi indeksi (Карточки возможных ответов, Индекс массы тела для интервьюеров)	o'zbekcha	40	16	800	ofset 100 gr	Rangli, 2 tomonli chop etish, A4	80 % kam bo'lmagan holda	Prujina bilan mahkamlash laminatsiyalash

Respondentlar uchun chop etiladigan maxsus shakllar va anketalar ro'yxati

№	Nomi	Tili	Jami nusxalar soni	1 varaqdagi shakllar soni	Varaqlar soni	Chop etish uchun varaqlar soni	Texnik spetsifikatsiyalar		
							Turi	Qog'oz	
								Rangligi, format	Oqligi
1	Respondentlar uchun so'rovнома (1 va 2-bosqichlar) (Вопросник для респондентов (Шаг 1 и 2))	o'zbekcha	4752	1	20	95040	ofset 70 gr	Oq-qora bir tomonli chop etish, A4	70 % kam bo'lmagan holda
		ruscha	477	1	17	8109			
2	Tashrif bildirishnomasi (1 varaqada 2 ta shakl) (Оповещение о визите (2 формы на 1 стр.))	o'zbekcha	4320	2		1000	ofset 70 gr	Oq-qora bir tomonli chop etish, A4	70 % kam bo'lmagan holda
		ruscha	432	2		250			
3	Ishtirokchining xabardor qilingandan so'ng roziligi (1 va 2-bosqich) va ishtirokchi bilan qaytaloqa (2-bosqich) (1 varaqada 2 ta shakl) (Информированное согласие участника (Шаг 1 и 2) и Обратная связь с участником (Шаг 2) (2 формы на 1 стр.))	o'zbekcha	4450	2		2225	ofset 70 gr	Oq-qora bir tomonli chop etish, A4	70 % kam bo'lmagan holda
		ruscha	475	2		238			
4	Biokimyoviy qon tekshiruvi uchun tavsiyanoma va ovqatdan tiyilish bo'yicha ko'rsatmalar (1 varaqada 3 ta shakl) (Направление для проведения биохимических анализов крови и Инструкция по воздержанию от еды (3 формы на 1 стр.))	o'zbekcha	4450	3		1483	Ofset 70 gr	Oq-qora bir tomonli chop etish, A4	70 % kam bo'lmagan holda
		ruscha	475	3		158			

5	Ishtirokchining xabardor qilingandan so'ng roziligi (3-qadam) va ishtirokchi bilan qayta-aloqa (3-bosqich) (1 varaqada 2 ta shakl) (Информированное согласие участника (Шаг 3) и Обратная связь с участником (Шаг 3) (2 формы на 1 стр.))	o'zbekcha	4450	2		2225	offset 70 gr	Oq-qora bir tomonli chop etish, A4	70 % kam bo'lmagan holda
		ruscha	475	2		238			
6	Ishtirokchi respondentlarni intervyu qilinganini ro'uxatga olish shakli (1 va 2-bosqich) (Форма регистрации интервью (Шаг 1 и 2))	o'zbekcha	178		2	356	Offset 70 gr	Oq-qora bir tomonli chop etish, A4	70 % kam bo'lmagan holda
7	Biokimyoviy tahlillarni ro'uxatga olish shakli (3-bosqich) (Форма регистрации проведения биохимических анализов (Шаг 3))	o'zbekcha	178		2	356	offset 70 gr	Oq-qora bir tomonli chop etish, A4	70 % kam bo'lmagan holda
8	Laborant uchun so'rovнома (3-bosqich) (Вопросник для лаборантов (Шаг 3))	o'zbekcha	4450	2		2225	offset 70 gr	Oq-qora bir tomonli chop etish, A4	70 % kam bo'lmagan holda
		ruscha	475	2		238			

Tadqiqotchilar uchun trening xarajatlari

Xarajat turi	Ishtirokchilar soni (taxminiy)	Kunlar soni
O'tkazilish joyi: Toshkent shahri		
<u>Nazoratchilar/supervayzerlar va intervyu oluvchilar uchun trening</u>		
Ishtirokchilar soni	46	5
Ishtirokchilarni Toshkent shahriga yetkazishni tashkil etish (shu jumladan transport xarajatlarini to'lash (yo'nalish: Viloyat markazi - Toshkent va qaytish))	36	
Mehmonxonada yashash (odam soni)	36	5
Tushlik (odam soni)	46	5
Kofe breyk (odam soni)	46	5
Kechki ovqat (odam soni)	36	5
O'quv xonasi va texnik jihozlarni ijaraga olish (multimedia proyektori, noutbuk, flipchart stend, oq ekran)		5
Kanselyariya buyumlari:		
— ruchka	46	
— A 5 formatli bloknot	46	
<u>Laborantlar uchun trening</u>		
Ishtirokchilar soni	20	2
Ishtirokchilarni Toshkent shahriga yetkazishni tashkil etish (shu jumladan transport xarajatlarini to'lash (yo'nalish: Viloyat markazi - Toshkent va qaytish))	28	
Mehmonxonada yashash (odam soni)	28	2
Tushlik (odam soni)	20	2
Kofe breyk (odam soni)	20	2
Kechki ovqat (odam soni)	28	2
Kanselyariya buyumlari		
— ruchka	20	
— A 5 formatli bloknot	20	

2/3 - 11/11/2017